

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI  
RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA  
BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  
professor \_\_\_\_\_ A.Elmuurodov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil**

**5440100-VETERINARIYA MEDITSINASI  
(FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA) TA‘LIMYO‘NALISHINI  
2023-2024-O‘QUV YILI BITIRUVCHILARI UCHUN “IXTISOSLIK”  
FANLARIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTASIYASI SAVOLLARI**

**SAMARQAND-2023**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 5440100-veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishini bitiruvchilarini 2023-2024 – o'quv yili uchun "ixtisoslik" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi savollari**

**III. Umumkasbiy fanlar:**

No	Fanlar nomi	Raqami
2.10	Hayvonlar patofiziologiyasi	1-10
2.11	Klinik diagnostika va rentgenologiya	11-20
2.12	Veterinariya farmakologiyasi	21-30
2.13	Operativ xirurgiya va topografik anatomiya	31-40
2.14	Patologik anatomiya gavda yorish va veterinariya sud ekspertizasi	41-50

**IV. Ixtisoslik fanlari:**

No	Fanlar nomi	Raqami
3.01	Veterinariya akusherligi	51-70
3.02.	Veterinariya ishini tashkil etish	71-80
3.03	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	81-100
3.04	Veterinariya xirurgiyasi	101-130
3.05	Milliy va xalqaro veterinariya qonunchiligi	131-140
3.06	Veterinariya toksikologiyasi	141-160
3.07	Parazitologiya va invazion kasalliklar	161-200
3.08	Ichki yuqumsiz kasalliklar	201-250
3.09	Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar	251-300

## **Tuzuvchilar:**

Fakultet uslubiy kengashi raisi, Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrası professori	Q.N.Norboyev
Parazitologiya va invazion kasalliklar kafedrası mudiri, professor	A.S.Daminov
Veterinariya farmakologiyasiva toksikologiyasi kafedrası mudiri, professor	Y.Salimov
Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya kafedrası mudiri, professor	N.B.Dilmurodov
Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrası mudiri, dotsent	N.B.Ro‘ziqulov
Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar kafedrası mudiri, dotsent	Z.Ro‘ziyev
Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyo va patofiziologiya kafedrası mudiri, dotsent	D.Eshimov
Veterinariya sanitariya ekspertizasi va gigiyenasi kafedrası mudiri, dotsent	F.B.Ibragimov

## **Taqrizchilar:**

<b>Bakirov B.</b>	- Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrası professori
<b>Nurullayev A.A.</b>	- Samarqand viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, b.f.n.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 5440100-veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarini 2023-2024 - o'quv yili uchun "ixtisoslik" fanidan yakuniy davlat attestasiyasi savollari**

1. Patologiya rivojlanishining asosiy davrlari haqida tushuncha bering.
2. Kasalliklarni tasniflashining umumiy tamoyillari haqida tushuncha bering.
3. Organizmning baryerlik xususiyatlarini tushuntiring.
4. Allergiya, allergik kasalliklar, infeksiyon allergiya, autoallergiyalar nima?
5. Reaktivlikda nerv va gumoral tizimlarning ahamiyatini tushuntiring.
6. Isitma nima, etiopatogenezi, turlari, bosqichlari va organizm uchun ahamiyatini tushuntiring.
7. Qonning biokimyoviy va fiziko-kimyoviy xususiyatlarining buzilishi oqibatlarini tushuntiring.
8. Yurak faoliyatiga bog'liq ravishda qon aylanishining umumiy yetishmovchiligini tushuntiring?
9. Jigar faoliyatining buzilishini sabablarini tushuntiring.
10. Qalqonsimon bez disfunktsiyasida qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
11. Klinik diagnostika va rentgenologiya fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari.
12. Umumiy tekshirish usullari: ko'zdan kechirish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya va termometriya.
13. Yurak va qon tomir tizimini tekshirish.
14. Nafas olish tizimini tekshirish.
15. Ovqat hazm qilish tizimini tekshirish.
16. Ayrish tizimini tekshirish.
17. Asab tizimini tekshirish.
18. Qon tizimini tekshirish.
19. Modda almashinuvini tekshirish usullari.
20. Rentgenologik tekshirish usuli.
21. Veterinariya farmakologiyasi fani to'g'risida tushuncha. Fanning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, rivojlanish tarixi.
22. Dori moddalarning farmakodinamikasi va farmakokinetikasi. (Dorilarning ta'sir joylari, dorilarni organizmga yuborish yo'llari).
23. Markaziy nerv tizimini susaytiruvchi moddalar. (Narkoz chaqiruvchi moddalar, tinchlantiruvchi va qaltiroqqa qarshi moddalar, tana haroratini tushiruvchi va analgetiklar).
24. Markaziy nerv tizimini qo'zg'atuvchi moddalar. (Antidepressantlar, kamfora guruhi preparatlari, kofein guruhi preparatlari).
25. Adrenomimetiklar. (Adrenalinning ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi). Oshqozon va ichaklarga ta'sir etuvchi moddalar. (Surgi dorilari to'g'risida qisqacha tushuncha. Ruminator moddalar. O't haydovchi moddalar).
26. Yurak va qon tomir tizimiga ta'sir qiluvchi moddalar. (Yurak glikozidlari, ta'sir mexanizmi).

27. Vitamin va vitaminsimon moddalar farmakologiyasi. (Suvda va yog'da eruvchi vitaminlar haqida tushuncha. Polivitaminlar va ularning qo'llanilishi).

28. Immunostimulyatorlar, fermentlar garmonlar va to'qima preparatlari.

29. Antimikrob moddalar. Dezinfeksiyalovchi va antiseptik moddalar. Formaldegid guruhi va kislorod beruvchi moddalar. Xlor preparatlar.

30. Kimyoterapevtik moddalar. Antibiotiklar. (penitsillinlar sinfi, tetrasiklinlar sinfi, streptomisinlar sinfi, makrolidlar sinfi).

31. Og'riqsizlantirishning ahamiyati, og'riq va uning organizmga ta'siri: organ va sistemalardagi o'zgarishlar. Hayvonlarni narkozga tayyorlash va ularni yuborish texnikasi.

32. Urg'ochi hayvonlarda ovarioektomiya operatsiyasi texnikasi: ko'rsatmasi, fiksasiya, og'riqsizlantirish, texnikasi.

33. Maxsus choklar va ularni bajarish texnikasi. (ichak, qon tomir, nerv va paylarga qo'yiladigan choklar).

34. Itlarda gastrotomiya operatsiyasi texnikasi: ko'rsatmasi, fiksasiya, og'riqsizlantirish, asboblar, texnikasi (oshqozonning anatomo-topografiyasi, xirurgik asboblar).

35. Kavshovchi hayvonlarda rumenotomiya texnikasi (ko'rsatmasi, fiksasiya, og'riqsizlantirish, xirurgik asboblar, texnikasi, anatomo-topografiya).

36. Xirurgik operatsiyaning turlari va tarkibiy qismlari (qonli va qonsiz; radikal va palliativ; rejali va tezkor; septic va aseptik operatsiyalar, kesim o'tkazish, qon to'xtatish va to'qimalarni birlashtirish).

37. Boshning anatomo-topografiyasi (chegaralari, qatlamlarga bo'linishi, qon tomir va nervlar bilan ta'minlanishi).

38. Buzoqlarni shoxsizlantirish va hayvonlarda shoxni olib tashlash usullari (ko'rsatmasi, fiksasiya, muddatlari, usullari, og'riqsizlantirish, asboblar va texnikasi)

39. Gipsli bog'lamlar qo'yish texnikasi va usullari (ko'rsatmasi, tayyorlash texnikasi, turlari, yopiq, derazachali, tabaqali va ko'priksimon).

40. Axtalashning ahamiyati, turlari va turli hayvonlarda axtalash texnikasi (ko'rsatmasi, fiksasiya, og'riqsizlantirish, qo'llaniladigan asboblar, ochiq va yopiq usul, emaskulyator, perkutan usuli).

41. Kuydirgining septik va karbunkullyoz shakllari, etiologiyasi, patogenezi, patanatomiyasi, tashxisi va qiyosiy tashxisi (giperplaziya, atoniya, zardobli-gemorragik ekssudat).

42. Manqa, zotiljam, burun-teri manqasi, ularning etiologiyasi, patogenezi, patanatomiyasi. (tuguncha, yaralar, lobulyar, lo'bar).

43. Gavda yorishning maqsadi, turlari, joyi, vaqti (patanatomik tashxis, sud-veterinariya ekspertizasi, ilmiy-tadqiqotlar, mahsulotlarni sifati).

44. Kasalliklardagi mahalliy patologik o'zgarishlar, etiologiyasi va patanatomiyasi (giperemiya, distrofiya, qon quyilishlar, nekroz, hajmi, shakli, konsistensiyasi, rangi, kesilgan yuza).

45. Difteritik kolit, etiologiyasi, patogenezi va patanatomiyasi (fibrinli yallig'lanish, nekroz, tugmachasimon tugunchalar, qavatli yallig'lanish).

46. Yallig'lanish. Yiringli yallig'lanishning etiologiyasi, turlari va patanatomiyasi (abscess, flegmona, emigrasiya, nekroz).

47. Adenoma va ularning patanatomiyasi (parenxima, stroma, hajmi, shakli, rangi, konsistensiyasi, kesilgan yuza, yetilgan etilmagan hujayralar).

48. Pnevmoniya va plevritlar, etiologiyasi, patanatomiyasi (zardobli, gemorragik, fibrinli, lobulyar, lobar).

49. Fassiolyoz. (etiologiyasi, patogenezi, patanatomiyasi, patanatomik tashxisi va qiyosiy tashxisi).

50. Quturish kasalligi. (etiologiyasi, patanatomiyasi, patanatomik tashxisi va qiyosiy tashxisi, turg'unlik giperemiyasi, qon quyilishlar, Babesh-Negri tanachasi, quturish tugunchasi).

51. Qo'shimcha jinsiy bezlar, ular ajratgan suyuqliklarning ahamiyati. (eyyakulyat hajmini ko'payishi, spermiylar anobolik holati, vasopressin, pufakchasimon, piyozchasimon bez).

52. Akusher-ginekologik dispanserlash. (maqsadi, bosqichlari: diagnostik, davolash va profilaktik tadbirlar).

53. Rektoservikal va vizoservikal sun'iy urug'lantirish usullari. (usulning afzalligi, shpris kateter, qin oynasi, og'riq reaksiyasi, infeksiya).

54. Bo'g'ozlik va bepustlikni aniqlash usullari (refleksologik, laborator usullar, UTT, klinik usullar).

55. Yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari va majruhlilari (asfiksiya, orqa chiqaruv teshigi, to'g'ri ichak, homilani bug'ilishi, uraxus fistulasi).

56. Jinsiy sikl bosqichlari va fenomenlari (jinsiy qo'zg'alish, tormozlanish bosqichi, ovulyatsiya, oqish, jinsiy moyillik).

57. Alimentlar bepustlik sabablari va oldini olish (oziqlantirish me'yorlari, oziqalar tarkibida vitaminlar, minerallar yetishmasligi).

58. Bachadon kasalliklarining turlari, sabablari, davolash va oldini olish usullari (bachadon atoniyasi, subinvalyusiyasi, endometrit, miometrit, parametrit, yiringli, fibrinli).

59. Sigirlarda mastitlarni davolash usullari (etiotrop, patogenetik, fizioterapiya, antibiotic va sulfanilamidlar).

60. Sigirlarda homila yo'ldoshini ushlanib qolishi (to'liq, qisman, karinkulalar, kotelidon, amnion suyuqligi, konservativ usul, 1-2%-li soda-tuz eritmasi).

61. Bo'g'ozlik fiziologiyasi, turlari, turli hayvonlarda bo'g'ozlik muddati. Homila pardalari va homila yo'ldoshi (ko'p bolali, yolg'on bo'g'ozlik, amnion, allantois, xorion, axorial, desmoxorial, disksimon).

62. Qo'y, echki va cho'chqalarni sun'iy urug'lantirish (suyultirilgan sperma, shpris katetr, shpris yarimavtomat, qin oynasi, vizoservikal, episervikal, POS-5, fraksiyali usul, furasillinning 1:5000 nisbatli eritmasi).

63. Bo'g'oz hayvonlarda qinning chiqishini davolash va oldini olish bachadon tutqichlari, tiqis saqlash, dag'al oziqalar, oziqalar to'yimliligi, dezinfeksiyalovchi eritmalar, bandaj qo'yish).

64. Bo'g'oz hayvonlarning osteomalyasiyasi: sabablari, belgilari, davolash va profilaktikasi (kalsiy, fosfor, yotoq yaralari, 0,5%-li veratrin eritmasi, retinol, kalsiferol, 20%-li glyukoza eritmasi).

65. Bo'g'ozlikni to'g'ri ichak orqali aniqlash (bachadon, bachadon shoxlari, tuxumdonlar, qo'lqoplar, katelidon, bachadon arteriyasi).

66. Veterinariya akusherligi fanining vazifalari, maqsadi, zooveterinariya mutaxassislarini tayyorlashdagi o'rni (jinsiy a'zolarining tuzilishi, fiziologiyasi, urug' olish, sun'iy urug'lantirish).

67. Tuqqandan keyingi yiringli-kataral endometrit. Sabablari, patogenezini, davolash va profilaktikasi (akusherlik qo'lqoplarini, dezinfeksiyalovchi eritmalar, yodopen, antibiotiklar).

68. Urg'ochi hayvonlarda kuyikishni aniqlovchi erkak hayvonlarni tayyorlash usullari (vazektomiya, V.S.Shipilov usuli, kriporxit, jarrohlik usullari, urug'don ortig'i).

69. Simptomatik bepushtliklar, turlari, sabablari va oldini olish. (endometrit, jinsiy a'zolar, yuqumli kasalliklar).

70. Spermaning sifatini aniqlashning makroskopik va mikroskopik usullari (konsistensiya, spermialar faolligi, spermialar patologik shakllari, spermaning rangi, hidi, hajmi).

71. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi?

72. Davlat veterinariya xizmatini boshqarish?

73. Veterinariyada hisobga olish va hisob-kitob hujjatlari?

74. Veterinariyada yuritiladigan jurnal shakllari?

75. Veterinariyada hisobot shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?

76. Identifikatsiya qilingan hayvonlarga veterinariya pasportini rasmiylashtirish tartibi?

77. Veterinariya tadbirlarini rejalashtirishning ahamiyati, prinsiplari, rejalarning turlari?

78. Veterinariya profilaktik va epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasi?

79. Yuqumli kasalliklarni aniqlash va uni tugatish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish (Karantin tadbirlari)?

80. Veterinariya-sanitariya nazorati va uni tashkil qilish.

81. Go'sht korxonalarini va so'yiladigan hayvonlarni dastlabki qayta ishlashning asosiy texnologiyasi va gigiyenasi.

82. Buzoq, cho'chqa va quyovni tanasini qayta ishlash.

83. Go'shtning morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tovarliligi.

84. Yuqumli kasalliklarda veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

85. Invazion kasalliklarda veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

86. Zaxarlangan hayvonlardan olingan mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

87. Majburiy so'yilgan hayvonlardan olingan mahsulotlarni veterinariya sanitariya ekspertizasi.

88. Go'shtni saqlashda sodir bo'ladigan o'zgarishlar va ularni bartaraf etish usullari.

89. Parrandalar go'shti va tuxumining veterinariya sanitariya ekspertizasi.
90. Baliq va baliq mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi.
91. Go'sht va go'sht mahsulotlarini konservatsiyalash texnologiyasi, gigiyenasi va ekspertizasi.
92. Go'shtdan tayyorlangan konservalarni tekshirish usullarini ayting.
93. Kolbasa va dudlangan mahsulotlarni veterinariya sanitariya ekspertizasi.
94. Qishloq xo'jalik hayvonlarini so'yishdan keyin olingan xom ashyo mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi.
95. Hayvonlardan olinadigan yog'larni ekspertizasi.
96. Sut tovar fermalarida sutni sanitariya gigiyenik talablari va kimyoviy tarkibi.
97. Kasal hayvonlar sutini veterinariya sanitariya ekspertizasi.
98. O'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi.
99. Asalni organoleptik ko'rsatkichlar bo'yicha baholash, gul nektari va shira asalni aniqlash.
100. Soxtalashtirilgan asalni aniqlash usullari.
101. Jarohatlarning tasniflanishi, etiologiyasi, klinik belgilari va davolash (tasodifiy, kesilgan, yirtilgan, sanchilgan, otilgan, operatsion jarohatlar, qon oqishi, jaroxat chetlari, bo'shlig'i, antiseptik eritmaları, mexanik va kimyoviy antiseptika, antibiotikli malhamlar).
102. Gematoma sabablari, klinikasi, turlari, oqibati, davolash (yopiq mexanik shikastlanishlar, ichki va tashqi, shish va mahalliy xarorat, og'riq, sovuq va qizituvchi kompress, geparin).
103. Hayvonlarda kuyishning etiologiyasi, turlari, darajalari, klinik belgilari va davolash (termik va kimyoviy, aseptik va septik yallig'lanish, kuchli og'riq, nekroz, perekis vodorodning 3 % li etirmasi, Vishnevskiy malhami).
104. Ko'z shox pardasi kasalliklari (shox parda jarohati, yallig'lanishi, klinik ko'rinishi va davolash usullari, sariq simob malhami, safrodeks va levomitsetin, FIBS, shishasimon tana).
105. Kimyoviy antiseptika mohiyati, maqsadi (antiseptik va bakteriostatik moddalar, mikroob aktivligini bostirish, o'lgan to'qima, yiringli eksudat olib tashlash, gidrotatsiya davrida qo'llash, ishqorli va oksidlovchi terapiya).
106. Parafimozning keltirib chiqaruvchi sabablari, klinik belgilari, oqibati va davolash usullari (preputsiy xaltasi, jinsiy a'zo, septik va aseptik yallig'lanish, falajlanish, amputatsiya).
107. Ko'zni tekshirish usullari (keratoskopiya, oftalmoskopiya, Purkine-Sansonov usullari).
108. Hayvonlarda nekrozni differensial diagnostikasi va davolash usullari (xo'l va quruq nekroz, klinikasi, o'lgan to'qima, bromtimolblau eritmasi).
109. Hayvonlarda lat yeyishlarning turlari, sabablari, klinikasi, darajalari, davolash va oqibati (ochiq va yopiq lat yeyishlar, gematoma, limfoestrovazat, kontuziya).
110. Yallig'lanishlarni novokain bilan davolash usullari (novokainning ta'sir mexanizmi, organizmda novokain qanday moddalarga parchalanadi), qo'llash usullari.



111. Umumiy veterinariya xirurgiya fanining predmeti – (shikastlanishning hamma turlarini, keltirib chiqaruvchi sabablari, hayvon turlari reaktivligi etiologik va patogenetik davolash va hokazo).

112. Jarohat infeksiyasining rivojlanish davrlari (mikrob bilan ifloslanish – kontamenatsiya, mikroflora, infeksiya va infeksiya tushunchalari).

113. Aktinomikoz kasalligi chaqiruvchilari, keltirib chiqaruvchi sharoitlar, klinikasi va davolash usullari (zamburug‘, operativ, etiopatogenetik).

114. Biologik antiseptika deganda nimani tushunasiz (o‘simlik, bakterial, hayvonlardan olingan preparatlar, qo‘llash maqsadi, antibiotiklar).

115. Tendovaginitlar etiologiyasi va klinikasi (gipodinamik, tuyoqlar deformatsiyasi) kechishiga qarab (o‘tkir, surunkali, aseptik, yiringli va invazionli) eksudati buyicha (serozli, serofibrinozli, fibrinozli, yiringli, gemorragik).

116. Jarohatni qisman kesib olish (birinchi davrni qisqartirish, infeksiyaning oldini olish, 0,5-1 foizli brontimolblau, metilblau).

117. To‘qimali terapiya (biostimulyatorlar, gomogenezator, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatma, biologik proba).

118. Surunkali yallig‘lanishlarni davolash (tamoyillari, o‘tkir, massaj, linementlar, malham).

119. Oqsoqlanish turlari (Oyoq kasalliklarini tekshirish usullari, shpat, tirsak, statikasi va dinamikasi).

120. Veterinariya oftalmologiyasi to‘g‘risida tushuncha (fan to‘g‘risida, kasallikning sodir bo‘lish darajasi, ko‘zning qisqacha anatomik tuzilishi).

121. Hayvonlarda oqmalarning tasniflanishi, klinikasi, davolash va oldini olish (drenaj, dizinfeksiyalovchi eritmalar, granulyatsion to‘qima).

122. Suyak sinishlariga tavsif bering (ochiq, yopiq, gips, etiologiyasi, diagnoz va davolash usullari).

123. Shikastlanishga organizmning mahalliy javob reaksiyasi (yallig‘lanishga tushuncha, aseptik, infeksiyali, normergik, giperergik va gipoergik yallig‘lanish).

124. Veterinariya ortopediyasi (veterinariya ortopediyasi, iqtisodiy zarar, tuyoqlarni tozalash, qirqish va taqalash).

125. Fimozga tushuncha bering, keltirib chiqaruvchi sabablari, klinik belgilari, oqibati va davolash usullari (kasallik boshlanishida, jinsiy olat shishib ketganda va falajlanganda).

126. Bo‘g‘inlarning lat yeyishi (etiologiyasi, diagnoz va davolash usullari).

127. Oyoqlar statikasi va dinamikasi (tik turish, xarakatlanish, oqsash).

128. Yiringli artrit kasalligiga tushuncha bering, keltirib chiqaruvchi sabablari, klinik belgilari, oqibati va davolash usullari. (patologik, birlamchi, oddiy, asoratli, yopiq, bo‘g‘inlardagi patologik o‘zgarishlar).

129. Jarohatning birlamchi, ikkilamchi tortilish va qoraqo‘tir bilan bitishiga xarakteristika bering (aseptik, septik, o‘lgan to‘qima, fibrinli massa).

130. Oqsoqlanish turlari, ularga tushunchalar bering. (erkin, tayanch, aralash).

131. Veterinariyaning chorvachilikni rivojlantirishdagi ahamiyati. “Veterinariya to‘g‘risida”gi qonunning mazmun va mohiyati.

132. Veterinariya qonunchiligini buzganlik uchun ko'riladigan choralar va ularning amaliyotda qo'llanilishi.

133. Veterinariya Nizomining tuzilishi, mazmuni, mohiyati va uning veterinariya sohasidagi ahamiyati.

134. Veterinariya sohasida yuritiladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

135. Davlat veterinariya nazorati ostidagi yuklarni eksporti, importi hamda tranzitida veterinariya hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni tashish qoidalari.

136. Veterinariya xizmati qonun osti hujjatlarini o'rganish.

137. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirishda qo'llaniladigan asosiy veterinariya sanitariya tadbirlarni o'rganish.

138. Veterinariya osoyishtaligini ta'minlashda veterinariya xizmatining ahamiyati.

139. Respublikada faoliyat ko'rsatadigan veterinariya xizmatining turlari, vazifalari va o'zaro farqi.

140. Veterinariya xizmati amalga oshiradigan asosiy profilaktika tadbirlari.

141. Veterinariya toksikologiyasi fani haqida tushuncha, fanning maqsadi va vazifalari (zahar nima, toksikologiya necha qismdan iborat, zaharni dori moddalardan farqi, zaharlanish sabablari).

142. Zaharning organizmga tushish yo'llari, sabablari va organizmga ziyonli ta'sirlari (zaharning organizmga tushishidan birinchi o'zgarishlar va organizmning holati).

143. Zaharlanishlarda antidotterapiya. (FOB lar, karbamatlar va nitratlar bilan zaharlanganda)

144. Zaharli moddlarning L.I.Medved va boshqalar bo'yicha klassifikatsiyasi (necha qismdan iborat, O'D<sub>50</sub> ni aniqlash usullari).

145. Fosfor organik birikma (FOB)lar bilan zaharlanishlar. (ta'sir qilish mexanizmi, sabablari, patogenezi, klinik belgilari va davolash).

146. Xlor organik birikma (XOB)lar bilan zaharlanishlar. (ta'sir qilish mexanizmi, sabablari, patogenezi, klinik belgilari va davolash).

147. Nitrat va nitritlar bilan zaharlanishlar. (sabablari, ta'sir qilish mexanizmi, klinik belgilari va davolash).

148. Sun'iy piretroidlar haqida tushuncha. Sun'iy piretroidlar bilan zaharlanishlar patogenizi, simptomlari, patanatomiyasi.

149. Piretroidlardan zaharlanishlarni va ular ta'siridan keyingi boshqa salbiy oqibatlarini bartaraf etish va davolashda qo'llaniladigan farmakologik vositalar.

150. Mineral zaharlar bilan zaharlanishlar. (mis birikmalari bilan zaharlanishlar, sabablari, klinik belgilari, davolash va oldini olish).

151. Ftor bilan zaharlanishlar. Sabablari, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlar, davolash va oldini olish.

152. Gerbitsitlar bilan zaharlanishlar. (organizmga tushish yo'llari, klinik belgilar, patologoanatomik o'zgarishlar, davolash va oldini olish).

153. Sanoat chiqindilari bilan zaharlanishlar. (organizmga tushish sabablari, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlar, davolash va oldini olish choralari).

154. Glikozidlar saqlovchi o'simliklar tasnifi, ular bilan zaharlanishlar. Klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlar, davolash va oldini olish choralari.
155. Hayvonlar zahri bilan zaharlanishlar. (sabablari, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlar, davolash va oldini olish).
156. Ilonlar zahari bilan zaharlanishlar. (sabablari, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlar, davolash va oldini olish).
157. Karbamatlar tasnifi, zaharlanishlar, sabablari, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlar, davolash va oldini olish).
158. Mochevina birikmalari bilan zaharlanish. (sabablari, klinik belgilari, diagnozi, davolash va oldini olish).
159. Zootsidlar toksikologiyasi. (sabablari, klinik belgilari, diagnozi, davolash va oldini olish).
160. Hayvonlar organizmidagi zaharli moddalarning toksikodinamikasi.
161. Parazitologiya faniga izoh bering, qaysi biologik, tibbiyot va veterinariya fanlari bilan chambarchas bog'liq.
162. Parazitologiya fanini rivojlantirishda, ayniqsa O'zbekistonda qaysi olimlar hissa qo'shgan.
163. Paramfistomatoz kasalligiga ta'rif bering. (qo'zg'atuvchining biologiyasi, belgilari).
164. O.turkestanica boshqa trematodlardan qaysi biologik xususiyatlari bilan farq qiladi.
165. Dicrocoelium lanceatumning biologik xususiyatini ta'riflang.
166. Qoramol va cho'chqa sistitserkoz kasalliklarini bir-biridan farqi nimada.
167. Exinokokkoz kasalligiga ta'rif bering. (Patogenezi, belgilari, oldini olish).
168. Senurozga qaysi yoshdagi hayvonlar chalinadi va u nimaga bog'liq.
169. Exinokokkoz, senuroz kasalligiga qarshi kurashishda olib boriladigan tadbirlar nimalardan iborat.
170. Moniezioz kasalligiga ko'proq qaysi turdagi hayvonlar moyil bo'lib, u qaysi mintaqalarda ko'proq uchraydi.
171. M.expansa va M.benedeni larning morfologik farqi nimada. (Oldini olish tadbirlari).
172. Otlarning anoplotsefalidoz kasalliklariga ta'rif bering. (Klinikasi, oldini olish).
173. Cho'chqa askaridozi va parranda askaridiozi kasalliklariga ta'rif bering.
174. Gepato-pulmonal migratsiya qilish deganda nimani tushunasiz, aytib bering.
175. Bir tuyoqli hayvonlarning paraskaridoz kasalligiga ta'rif bering.
176. Go'shtxo'r hayvonlarning askaridatoz kasalliklari deganda qaysi kasalliklar ko'zda tutiladi.
177. Otlarning oksiuroz kasalligiga xarakteristika bering. (Xarakterli belgilari, oldini olish).
178. Otlarning hazm organlarida Strongylata kenja turkumining qaysi oila vakillari parazitlik qilib kasallik sodir etadi.

179. Kavshovchi hayvonlarning oshqazon-ichaklarida strongilyatlarining nechta oila vakillari parazitlik qilib kasallikni sodir etadi.
180. Trixostrogilidlardan qaysi avlod vakillari ko'proq uchraydi.
181. Gemonxoz kasalligiga ta'rif berib, qo'zg'atuvchisi va uning biologik rivojlanishiga izoh bering.
182. Chabertia ovinaning tuzilishi, biologiyasini aytib, u tomonidan sodir etiladigan kasallikka ta'rif bering.
183. Qo'y va echki diktiokaulyoq qo'zg'atuvchisiga xarakteristika bering.
184. Telyazioz kasalligiga ta'rif bering. (Qaysi kasalliklardan farqlash kerak).
185. Trixinellez kasalligiga ta'rif bering. (Belgilari, davolash va oldini olish).
186. Qoramol piroplazmoziga ta'rif berib, qo'zg'atuvchisining tuzilishi, biologiyasi va tashuvchi kanallari haqida ma'lumot bering.
187. Hyalomma avlod vakillari qolgan yaylov kanallaridan qaysi xususiyati bilan ajralib turadi.
188. Teylerioz kasalligini qaysi kasalliklardan farq qila olishimiz kerak.
189. Otlarning piroplazmoziga ta'rif bering. (Belgilari, davolash usullari).
190. Parranda eymerioziga ta'rif bering. (Belgilari, davolash).
191. Tripanosomoz kasallik qo'zg'atuvchisining sistematik holati, morfologik tuzilishi va rivojlanishini tushuntirib bering.
192. Qoramollarning trixomonoz kasalligiga ta'rif bering.
193. Qo'tir va qichima- qo'tir kasalliklariga ta'rif bering.
194. Psoroptes, Sarcoptes va Chorioptes avlodlariga mansub kanallarning tuzilishi va biologik xususiyatlarini tushuntirib bering.
195. Itlarning demodekoz kasalligiga ta'rif bering.
196. Hypoderma bovisning sistematikadagi holati, tuzilishi va biologiyasini tushuntirib bering.
197. Oestrus ovisning sistematikasi, morfologiyasi va biologiyasini tushuntirib bering.
198. Gastrofilus avlodiga mansub bo'kallarning sistematik holati, morfologik tuzilishi va biologiyasini tushuntirib bering.
199. Qon so'ruvchi qanotsiz hasharotlar va ular tomonidan keltirib chiqaradigan melofagoz kasalligiga ta'rif bering.
200. Qon so'ruvchi qo'sh qanotli hasharotlar va qon so'ruvchi qanotsiz hasharotlarning asosiy farqi nimada.
201. Ichki yuqumsiz kasalliklar umumiy profilaktikasining nazariy asosi.
202. Ichki yuqumsiz kasalliklar umumiy profilaktikasining tashkiliy asosi-Dispanserlash.
203. Umumiy terapiya va terapevtik texnika asoslari.
204. Yurak va qon tomirlar tizimining kasalliklari.
205. Nafas tizimining kasalliklari.
206. Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari.
207. Oshqozon oldi bo'limlari kasalliklari.
208. Me'da va ichak kasalliklari.

209. Jigar kasalliklari.
210. Siydik ayirish tizimining kasalliklari.
211. Qon tizimining kasalliklari.
212. Oqsillar, uglevodlar va yog'lar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklar.
213. Mineral moddalar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan kasalliklar.
214. Enzootik kasalliklar.
215. Gipovitaminozlar.
216. Yosh hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari.
217. Oziqa toksikozlari.
218. Markaziy asab tizimi kasalliklari.
219. Parrandalarning yuqumsiz kasalliklari.
220. Qoramollarda oshqozon oldi bo'limlarining gipo- va atoniyasini davolash.
221. Otlarda sanchiq simptomokompleksi bilan kechuvchi kasalliklarni davolash.
222. Mahsuldor qoramollarda gepatozlarning oldini olish.
223. Bronxopnevmoniyani davolash va oldini olish.
224. Krupoz pnevmoniyani davolash va oldini olish.
225. Sog'in sigirlar ketozi.
226. Buzoqlarda raxitni davolash va oldini olish.
227. Osteodistrofiyani davolash va oldini olish.
228. Gipokuprozo va gipokobaltoz kasalliklarining oldini olish.
229. Sog'in sigirlarni dispanserlash, bosqichlari (poda sindromatikasi).
230. Cho'chqa va parrandalarning osh tuzidan zaharlanishi.
231. Qoramollarning mochevinadan zaharlanishi.
232. Qoramollarning paxta sanoati chiqindilaridan zaharlanishi.
233. Buzoqlar dispepsiyasini davolash.
234. Oqsillar almashinuvini buzilishlarini guruhli-profilaktik davolash.
235. Mineral moddalar almashinuvini buzilishlarini guruhli-profilaktik davolash.
236. Vitaminlar almashinuvini buzilishlarini guruhli-profilaktik davolash.
237. Uglevodlar almashinuvini buzilishlarini guruhli-profilaktik davolash.
238. Otlarda kampirchapondan zaharlanishlarni davolash.
239. Qoramollarda geliotrop toksikoz kasalligini davolash.
240. Parrandalarda raxit kasalligining oldini olish.
241. Perikard kasalliklari: perikardit, gidroperikard.
242. Miokard kasalliklari: miokardit, miokardozi.
243. Endokard kasalliklari: endokardit, yurak nuqsonlari.
244. Qon tomirlar kasalliklari.
245. Yuqori nafas yo'llarining kasalliklari: rinit, laringit, bronxit.
246. O'pka kasalliklari: o'pka shishi va giperimiyasi, bronxopnevmoniya, krupoz pnevmoniya.
247. Nafas tizimi kasalliklarini patogenetik davolash usullari.

248. Og‘iz bo‘shlig‘ining kasalliklari: stomatit, faringit.
249. Qizilo‘ngach kasalliklari.
250. Parrandalarning ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari: stomatit, ingluvit, jig‘ildonning tiqilishi, kutikulit, dispepsiya.
251. Epizootologiya fanining predmeti va vazifalari
252. Infekzion kasalliklarda allergik tekshirish usullari
253. Patogenlik va virulentlikga tushuncha bering
254. Dezinfeksiya turlari va obyektlari
255. Deratizatsiya va dezinfeksiya usullari va vositalari
256. Laboratoriyaviy tekshirish uchun patologik material olish va jo‘natish qoidalari
257. Kuydirgi kasalligi profilaktikasi va qarshi kurash tadbirlari
258. Qorason kasalligi davolash va oldini olish choralari
259. Qotma kasalligi epizootologiyasi va davolash usullari
260. Bradzot kasalligi umumiy va maxsus profilaktikasi
261. Infekzion enterotoksemiya diagnostikasi va davolash usullari
262. Tuberkulyozdan xo‘jalikni sog‘lomlashtirish tadbirlari
263. Brusellyozni allergik va serologik diagnostikasi
264. Oqsil kasalligini geografik tarqalishi va oldini olish tadbirlari
265. Quturish kasalligi diagnostikasi va profilaktikasi
266. Auyeski kasalligi epizootologiyasi va differensial diagnostikasi
267. YPPG (yuqori patogenli parranda grippi) kasalligi epizootologiyasi
268. Cho‘chqalar grip kasalligi epizootologiyasi va profilaktikasi
269. Otlarning grip kasalligini oldini olish va qarshi kurash tadbirlari
270. Qoramollar o‘lati diagnostikasi va profilaktikasi
271. Pasterellyozni davolash va maxsus oldini olish tadbirlari
272. Leptospirozni diagnostikasi va davolash usullari
273. Listeriozni epizootologiyasi va diagnostikasi
274. Temiratki kasalligini davolash va qarshi kurash tadbirlari
275. Paratuberkulyozni klinik belgilari va shakllari
276. Kampilobakteriozni davolash va differensial diagnostikasi
277. Qoramollar leykozining serologik diagnostikasi
278. Qoramollarni virusli diareya kasalligida laboratoriya diagnostikasi
279. Qoramollarning nodulyar dermatit kasalligi epizootologiyasi
280. Tuyalar o‘lati diagnostikasi va profilaktikasi
281. Otlarning manqa kasalligi allergik diagnostikasi
282. Otlarning saqov kasalligi epizootologiyasi va patogenezi
283. Otlarning rinopnevmoniya kaslligida serologik diagnostikasi
284. Biyalarning samonellyozli aborti epizootologiyasi va davolash usullari
285. Cho‘chqalarni saramas kasalligi diagnostikasi va davolash usullari
286. Yosh hayvonlar salmonellyozini davolash va maxsus profilaktikasi
287. Yosh hayvonlar kolibakteriozini davolash va maxsus profilaktikasi
288. Parrandalarning Nyukasl kasalligi profilaktikasi va serologik diagnostikasi

289. Parandalarning laringotraxeit kasalligida patanatomik o'zgarishlar va klinik belgilari
290. Parrandalarning marek kasalligini epizootologiyasi va patogenezi
291. Parrandalar pullorozida differensial diagnostikasi
292. Go'shtxo'r hayvonlarni o'lat kasalligini epizootologiyasi va diagnostikasi
293. Quyonlar miksomatozi maxsus profilaktikasi va diagnostikasi
294. Chechak kasalligi epizootologiyasi, patogenezi va maxsus profilaktikasi
295. Botulizm kasalligi diagnostikasi va profilaktikasi
296. Nekrobakteriozni davolash va oldini olish tadbirlari
297. Buzoqlarning rotavirusli diareya kasalligini davolash va oldini olish tadbirlari
298. Buzoqlarning koronavirusli enteriti kasalligini davolash va oldini olish tadbirlari
299. Infekcion bronxit kasalligini profilaktikasi va diagnostikasi
300. Respirator mikoplazmozni epizotologiyasi va davolash usullari

**Veterinariya profilaktikasi va  
davolash fakulteti dekani, dotsent**

**Sh.X.Qurbanov**